

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 1-SON
2025-YIL

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**O'ZBEKISTON TARAQQIYOT
STRATEGIYASINING USTUVOR
YO'NALISHLARI BO'YICHA
TADQIQOTLAR**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-09-362-3

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sadikov Akramjon

AK-2 ANTIPIREN KOMPOZITSIYASINING ELEKTRON SKANERLOVCHI MIKROSKOR (ESM) VA ELEMENT TAHЛИLI 5-8

Yusupova Dilfuza, Maqsudov Nabijon

YUQORI HARORAT TA'SIRIDAN MAXSUS HIMOYA KIYIMLARINI ISHLAB CHIQARISH UCHUN MATERİALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR..... 9-11

TARIX FANLARI

Xusanov Ximmat

SAAD ZAGLUL BOSHCHILIGIDA MISRLIKLARNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI..... 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Ikramov Axbар

СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ 15-18

Baxridinova Shaxnozaxon

KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR NING O'RNI 19-22

FALSAFA FANLARI

Raxmatov Bekzod

O'ZBEKİSTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA MILLIY G'OYA VA
MAFKURANING AHAMIYATI..... 23-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ibrogimova Dilnoza

DEVONI LUGOTIT-TURK ASARIDA KASB-HUNAR LEKSİKASINING
LEKSİK-SEMANTIK TAHЛИLI 31-35

Po'latova Lobar

"YANGI DAVR" INFORMATSION DASTURI – O'ZBEKİSTON YOSHLARINING AXBOROT
MANBALARIDAN BIRI SIFATIDA..... 36-40

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ 41-47

YURIDIK FANLARI

Qayumberdiyeva Dildora

O'ZBEKİSTON RESPUBLIKASI DA MEDIATSIYA INSTITUTINI TARTIBGA SOLISH BILAN
BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR 48-51

PEDAGOGIKA FANLARI

Xamrakulova Kumush

QULAY TA'LIM MUHITI YARATISHDA OTA-ONALAR, MAHALLA VA
MAKTABNING IJTIMOY HAMKORLIGI 52-56

Nishanbayeva Nozimaxon

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING LISTENING IN A DIGITAL EDUCATIONAL
ENVIRONMENT..... 57-61

Jololdinov Asror

KARTOGRAFIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR VA ULARNING
SAMARADORLIGI 62-67

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA
TOPSHIRIQLARI ROLI 68-69

TIBBIYOT FANLARI

Mirzaahmedova Muxarram, Atamuratova Aйпаршин

VЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОГО МАТЕРИАЛА ДЕТСКОГО САДА НА ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
ДОШКОЛЬНИКОВ 70-72

Abdusalomov Sanjar, Abdusalomov Sunnatulla, Botirov Kamronbek

TISH EMALINING REMINERALIZATSIYA QILISHNING YANGI TEXNOLOGIYA VA
USULLARI 73-77

"YANGI DAVR" INFORMATSION DASTURI – O'ZBEKISTON YOSHLARINING AXBOROT MANBALARIDAN BIRI SIFATIDA

Po'latova Lobar

O'zbekiston MTRK "Davr" axborot dasturlari bosh muharririyatining katta muharriri
Tel: +998 90 187 56 16
Email: iymona050@mail.ru
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqlada O'zbekiston davlat telekanallarida efirga uzatiladigan «Yangi Davr» axborot dasturining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy holati ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o'r ganilgan. Dasturning yoshlari ma'naviyati va axborot ehtiyojini qondirishdagi o'rni, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati hamda axborot xavfsizligidagi roli tahlil qilingan. Shu bilan birga, dasturning global axborot makonidagi o'rni, zamonaviy jurnalistika tendensiyalari bilan uyg'unligi va kelgusi istiqbollari haqida ham mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi Davr, axborot dasturi, yoshlari siyosati, milliy televidenie, axborot xavfsizligi, jurnalistika, globallashuv.

THE NEWS PROGRAM "YANGI DAVR" AS A SOURCE OF INFORMATION FOR THE YOUTH OF UZBEKISTAN

Pulatova Lobar

Senior Editor of the Main Editorial Office of the "Davr" Information Programs, National Television and Radio Company of Uzbekistan.

Annotation. The article provides a scientific and analytical study of the origins, stages of development, and current state of the "Yangi Davr" news program broadcast on Uzbekistan's state television channels. The role of the program in meeting the information needs of youth, its socio-political significance, and its contribution to information security are analyzed. Furthermore, the article discusses the program's place in the global information space, its alignment with modern journalism trends, and its future prospects.

Key words: Yangi Davr, news program, youth policy, national television, information security, journalism, globalization.

O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab axborot makonining kengayishi va yangi turdag'i ommaviy axborot vositalarining yuzaga kelishi jamiyatda ma'naviy va ijtimoiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Milliy telekanallar orqali efirga uzatilayotgan axborot dasturlari nafaqat jamoatchilik fikrini shakllantirishda, balki yosh avlodning dunyoqarashi, ma'naviy immuniteti va ijtimoiy faolligini oshirishda ham muhim vazifa bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, "Davr" hamda uning zamonaviy davomi hisoblangan "Yangi Davr" axborot dasturi nafaqat davlat telekanallari ichida, balki umummilliy ma'naviy-axboriy makonda o'ziga xos o'r'in tutadi.

Mazkur dasturning tarixiy asoslari 1998 yil 26 mart kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan uzviy bog'liqdir[1]. Shu qaror asosida O'zteleradiokompaniyaning yoshlarga yo'naltirilgan maxsus telekanali tashkil etildi va uning tarkibida "Davr" informatsion dasturi o'z faoliyatini boshladi.

Dasturning ilk soni 1998 yilning 1 sentabrida efirga uzatilgani mamlakat axborot maydonida yangi bosqichni boshlab berdi.

Axborot dasturining dastlabki boshlovchilari sifatida Guli Ikromova va Fayzulla Yunusov tanlangani ham tasodify emas edi. Chunki ularning diksiyasi, suhandonlik mahorati va omma bilan muloqot uslubi dasturning ahamiyatini yanada oshirdi. Shu tariqa "Davr" dasturi qisqa vaqt ichida o'z auditoriyasiga ega bo'lib, ayniqsa, yoshlardan mashhur bo'ldi. Ushbu dastur nafaqat mamlakatimizda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni, balki yoshlarning turli sohalardagi yutuqlarini keng qamrovli yoritib bordi.

Jurnalistika nazariyasida axborot dasturlari ommani "shu zamonning daqiq fotosi" bilan ta'minlaydigan mexanizm sifatida izohlanadi[2]. Bu jihatdan "Davr" dasturi zamonaviy reportaj, teleocherk va intervyu janrlari asosida yaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, dasturning dastlabki yillarida ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilayotgan yoshlardan haqida tayyorlangan lavhalar, sportda g'olib chiqqan o'smirlar haqidagi reportajlar va milliy hunarmandchilik yo'nalishidagi ocherklar yosh avlodning ijtimoiy maqomini yuksaltirishda katta o'rinni tutdi.

Shu bilan birga, dasturning rivojlanish jarayonida uning efir hajmi kengayib bordi. Avvaliga kechki vaqtarda — 19:00 va 22:00 da efirga chiqar ekan, ordan 2-3 oy o'tib, 13:00, 16:00 va ertalabki sonlar ham efirga uzatildi. Bu jarayon axborot dasturlariga bo'lgan ijtimoiy talabning yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, dastur negizida "Davr intervyu", "Davr hafta ichida", "Davr reportaj" va "Asr qiyofasi" kabi qator maxsus ko'rsatuqlar ishlab chiqildi. Ular nafaqat auditoriyani kengaytirdi, balki dasturning badiiy va g'oyaviy saviyasini ham oshirdi[3].

2017 yildan boshlab dastur zamon talabiga muvofiq "Yangi Davr" nomi bilan efirga uzatilishi boshlandi. Bu nom o'zgarishi oddiy formal qadam emas, balki mazmun va shakl jihatidan yangilanish jarayoni edi. Bugungi globallashuv davrida axborot tezkorligi, xolisligi va ommabopligi asosiy mezonga aylandi. Shu bois "Yangi Davr" dasturi ham yangicha rejissyorlik uslublari, montaj texnikasi va zamonaviy jurnalistik yo'nalishlar asosida tuzila boshladi.

Yoshlardan auditoriyasi - O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. Shu ma'noda, "Yangi Davr" dasturining asosiy vazifasi yoshlarga manzur bo'ladigan, ularning yoshiga mos va tushunarli axborot yetkazishdan iboratdir. Bugungi kunda auditorianing qiziqishlari keskin o'zgarmoqda, ular uzun va balandparvoz bayonotlardan ko'ra, qisqa, ravon va hayotiy misollarga boy axborotni afzal ko'rishmoqda. Shuning uchun dastur jamoasi har bir xabar va reportajni oddiy, xalqchil va ta'sirchan uslubda tayyorlashga intiladi.

Jurnalistika amaliyotida "axborot dasturining hayoti tezkorlikda" degan qoida bor. Bu jihatdan qaralganda, "Yangi Davr" ijodiy jamoasi har kuni kamida ikki-uchta suratga olish jarayonida qatnashib, efirni yangi materiallar bilan ta'minlaydi. Ayniqsa, davlat rahbari ishtirokidagi tadbirlar, parlament faoliyati, turli hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, sport va madaniy hayotga oid yangiliklar dasturning asosiy tarkibiy qismiga aylangan.

Ana shunday sharoitda dasturning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, u yoshlarning axborot olish ehtiyojini qondirish bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlaydi. Axborot dasturlari zamonaviy mafkuraviy poligon sharoitida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali yoshlardan mafkuraviy ta'sirdan asraladi va milliy o'zligini anglashga unatiladi.

"Davr" informatsion dasturi O'zbekistonda axborot maydonini kengaytirish va davlat yoshlar siyosatini targ'ib qilishda o'ziga xos maktab sifatida namoyon bo'ldi. Uning rivojlanish bosqichlari mamlakatda amalga oshirilgan siyosiy va ma'naviy islohotlar bilan uzviy bog'liqdir.

Birinchi bosqich - dasturning tashkil topish va ilk yillari (1998–2005). Bu davrda asosiy e'tibor yoshlar hayotiga doir xabarlarni keng yoritishga qaratildi. Masalan, sanoat korxonalarida ishlayotgan yoshlar, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan yigit-qizlar, sport maydonlarida erishilgan g'alabalar haqidagi lavhalar "Davr"ning markaziy mavzulari bo'lib xizmat qildi. Shu orqali dastur davlat siyosatida belgilangan "yoshlar — kelajagimiz" degan g'oyaning amaliy ifodasiga aylandi.

Ikkinchi bosqich - dasturning mustahkamlanishi va janrlarining kengayishi (2006–2010). Bu davrda dasturning efir hajmi ortdi, uning asosida turli yo'nalishdagi maxsus ko'rsatuvar paydo bo'ldi. "Davr intervyu" turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va yoshlar bilan suhbatni taqdim etar ekan, "Asr qiyofasi" esa muayyan shaxslar yoki voqealar orqali zamon ruhini aks ettirishga qaratildi. Bu jarayon dasturning badiiy-g'oyaviy saviyasini yanada yuksaltirdi va uning axborot dasturlari ichidagi mavqeini mustahkamladi.

Uchinchi bosqich - yangilanish va raqobat muhitidagi faoliyat (2011–2016). Bu yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalishi bilan televideonie oldida yangi vazifalar paydo bo'ldi. Auditoriyaning bir qismi axborotni tezkor tarzda internetdan olishni afzal ko'ra boshladi. Shu sharoitda "Davr" dasturi o'z uslubini yangilashga kirishdi. Zamonaviy grafika, tezkor reportajlar, muxlislarga yaqin uslubda tayyorlangan ocherklar efirga chiqarildi. Bu esa dasturning raqobatbardoshligini ta'minladi.

To'rtinchi bosqich - "Yangi Davr" nomi bilan yangi qiyofa (2017 yildan buyon). Mazkur bosqichda dastur zamonaviy axborot jurnalistikasi tamoyillari asosida qayta shakllandi. Yangicha montaj uslublari, dinamik kadrlar, auditoriyaga yaqin qiyofalar orqali yangiliklar taqdim etildi. Bu jarayon "yangi format — yangi mazmun" qoidasini amalda ko'rsatdi. Shu bilan birga, dasturda davlat rahbarining ishtirokidagi rasmiy tadbirlar, parlament faoliyati, xalqaro uchrashuvlar bilan birga, turli hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar keng yoritildi[4].

"Yangi Davr" dasturining ijtimoiy ahamiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, uning yoshlar ma'naviyatiga qaratilgan yo'nalishi alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda yosh avlod nafaqat axborot iste'molchisi, balki ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot dasturlari orqali ularning yutuqlari keng targ'ib qilinishi yoshlarda o'z-o'ziga ishonch va ijtimoiy faollikni oshirmoqda. Jurnalistikada "qaxramonlik modellari" degan nazariya mavjud bo'lib, unga ko'ra, ommaviy axborot vositalarida yosh qahramonlar haqidagi lavhalarning ko'payishi boshqa yoshlarni ham ijtimoiy faollikka undaydi. "Yangi Davr" bu nazariyaning amaldagi tasdig'i hisoblanadi.

Shu bilan birga, dasturning xalqaro axborot maydonidagi o'rni ham muhim. Bugungi kunda global axborot makonida g'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchayib borar ekan, milliy telekanallar orqali xolis va tezkor axborot yetkazish davlat mustaqilligini mustahkamlashda strategik vazifa hisoblanadi. "Yangi Davr" bu ma'noda mamlakat axborot siyosatida milliy manfaatlarni himoya qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jurnalistikadan zamonaviy talablariga ko'ra, yoshlar auditoriyasi uchun axborotni qisqa, ravon va vizual elementlar bilan boyitib taqdim etish muhim. "Yangi Davr" ijodiy jamoasi bu talabni anglab yetgan holda, har bir xabarni grafik elementlar, infografika va dinamik kadrlar bilan to'ldirmoqda. Bu esa uning ommabopligrini ta'minlaydi.

Axborot dasturlarining ahamiyatini yana bir jihatdan tahlil qilsak, ular milliy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda ham alohida o'rinn tutadi. Chunki televidenie orqali efirga uzatiladigan xabarlar keng auditoriyaga yetib boradi va jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Bugungi axborot kurashi sharoitida "Yangi Davr" dasturining xolis, xalqchil va zamonaviy uslubda tayyorlanishi yoshlarni turli yot g'oyalar ta'siridan asrab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Yangi Davr" dasturining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, u nafaqat milliy televideniedagi oddiy yangiliklar dasturi, balki keng ma'noda ijtimoiy institut vazifasini ham bajarib kelmoqda. Axborot jamiyatni nazariyasida ommaviy axborot vositalari "to'rtinchi hokimiyat" sifatida ta'riflanadi. Ularning ahamiyati jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash, davlat va fuqaro o'rtasida muloqot ko'prigi vazifasini o'tash bilan belgilanadi. Bu nuqtai nazardan "Yangi Davr" dasturi ham mamlakatimizdagi davlat siyosati va yoshlar hayotining voqelikdagi aksini namoyon qiladi.

Axborot dasturining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri ayniqsa muhim. Jamiyatning eng faol qatlamini tashkil etuvchi yoshlar zamonaviy global madaniy oqimlar ta'siriga eng ko'p moyildirlar. Shuning uchun milliy televidenie dasturlari ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. "Yangi Davr" dasturida yoritiladigan lavhalarda yoshlar yutuqlari, ularning turli sohalardagi ijodiy g'alabalari va tashabbuslari keng targ'ib qilinadi. Bu jarayon "ijobiy qahramon" modeli orqali yoshlarning o'z salohiyatini namoyon etishiga turtki beradi.

Zamonaviy axborot muhitida tezkorlik asosiy talabdir. Jurnalistika nazariyasida bu "real time news" deb [5]. Bu talabni hisobga olgan holda, "Yangi Davr" ijodiy jamoasi har kuni efirni yangi xabarlar va tahliliy lavhalar bilan boyitib kelmoqda. Shu bilan birga, dasturda infografika, dinamik kadrlar, vizual effektlardan keng foydalaniishi uning ommabopligrini ta'minlaydi.

Muhokama jarayonida yana bir jihatga e'tibor qaratish kerak. Bugungi globallashuv davrida axborot makonida g'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchayib bormoqda. Turli xorijiy telekanallar va internet platformalar orqali tarqatilayotgan ma'lumotlar ko'p hollarda milliy manfaatlarga zid bo'lishi mumkin. Shu sharoitda "Yangi Davr" dasturi kabi milliy informatsion dasturlarning strategik ahamiyati yanada ortib boradi. U yoshlarga xolis va ishonchli axborot yetkazish orqali axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, dasturning ahamiyatini faqat mamlakat ichidagina emas, balki xalqaro axborot maydonida ham ko'rish mumkin. Chunki bugungi kunda har qanday milliy yangiliklar dasturi global internet tarmoqlari orqali xalqaro auditoriyaga ham yetib bormoqda. Shuning uchun "Yangi Davr" dasturining mazmun va shakl jihatdan zamon talabiga mos bo'lishi uning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, dasturning istiqbollari haqida so'z yuritganda, uning raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi yoshlar asosan smartfon va internet orqali axborot olishga moyil bo'lgani sababli, "Yangi Davr" dasturining ijtimoiy tarmoqlarda faol tarqatilishi, YouTube, Telegram va boshqa platformalardagi sahifalari uning auditoriyasini yanada kengaytiradi.

Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, "Yangi Davr" dasturining kelgusidagi rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb:

- axborotlarni yanada qisqa va ravon uslubda yetkazish,
- multimedia texnologiyalarini yanada keng joriy etish,

- yoshlar ishtirokida interaktiv formatlarni ko'paytirish,
- xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish.

Shunday qilib, "Yangi Davr" dasturi nafaqat milliy televideniening ilg'or axborot dasturi, balki jamiyat ma'naviy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Yangi Davr" axborot dasturi O'zbekiston yoshlarining asosiy axborot manbalaridan biri sifatida yigirma besh yildan ortiq vaqt davomida o'z nufuzini saqlab kelmoqda. U orqali yoshlar davlat siyosati, ijtimoiy hayot va jahondagi voqealar haqida xolis va ishonchli ma'lumotga ega bo'lib kelmoqdalar. Dasturning rivojlanishi va zamonaviy shaklda yangilanishi uning istiqbolda ham milliy ma'naviyat va axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim vazifa bajarishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг "Ижтимоий-маънавий мунифтия янада sog'lomlashтириш, диний аqidaparaстликнинг олдини олиш чоратадбирлари тўг'рисида" 1998 йил 26 мартағи 132-сон Қарори
2. Ходжаев А., Найитов Ш. Радио ва телевидение. – Тошкент: Ўқитувчи, 2022. – Б. 114.
3. Найитов Ш., Аллембергенова П. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси: Замон билан намқадам. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2022. – Б. 56.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг . Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўг'рисида. – Тошкент, 18.01.2021, 23-сон қарори.
5. Pavlik J.V. Journalism in the Age of Virtual Reality: How Experiential Media Are Transforming News. Columbia University Press, 2018.

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

ISBN-978-9910-09-362-3

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.